

## MEHNATNI MUHOFAZA QILISH MADANIYATI KORXONA BOSHQARUV TIZIMIDA XAVFSIZ MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH VA MUXOFAZALASHNING MUHIM OMILI

**Rasuleva Mavlyuda Abidovna**

*Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti  
texnika fanlari nomzodi,*

**Xodjayev Azizxon Sotvoldiyevich**

*katta o'qituvchi  
akb-81@mail.ru, +998903703461*

**Annotatsiya.** *Mehnatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish - bu xodimlarning korxonada xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish masalalariga munosabatini belgilaydigan bilim, ko'nikma va qadriyatlar to'plamini, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhimligini, shuningdek, har bir xodimning o'z xavfsizligi va boshqalarning xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarligini tushunishni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *xavfsizlik, ko'nikma, qadriyat, boshqaruv masalalari, mikroiklim parametrlari, baxtsiz hodisalar, xodimlarning xavfsizligi va salomatligini*

**Аннотация.** *Формирование культуры охраны труда включает в себя совокупность знаний, умений и ценностей, определяющих отношение работников к вопросам безопасности и охраны труда на предприятии, важность соблюдения правил безопасности, а также понимание личной ответственности каждого работника за свою безопасность и безопасность окружающих.*

**Ключевие слова:** *безопасность, навыки, ценности, вопросы управления, параметры микроклимата, несчастные случаи, безопасность и здоровье работников.*

**Annotation.** *The formation of a culture of labor protection includes a set of knowledge, skills and values that determine the attitude of employees to safety and labor protection issues in the enterprise, the importance of compliance with safety rules, as well as the understanding of the personal responsibility of each employee for his own safety and the safety of others.*

**KeyWords:** *safety, skills, value, management issues, microclimate parameters, accidents, employee safety and health*

Mehnatni muhofaza qilish madaniyati yangi tushuncha bo'lib, tizim ichidagi xatti-harakatlar va ish joyidagi xavfsizlik iqlimini yaratish kabi MMQning madaniy jihatlarini ko'rib chiqadigan bir qancha boshqa nazariyalarni o'z ichiga oladi. Bu albatta korxonada mehnatni muhofaza qilish tizimining qanchalik samarali ishlashi bilan bog'liq. Chunki bir toifadagi korxonalar va tashkilotlarda ushbu tizimning samaradorligi turlicha bo'ladi.

Shu bilan birga, boshqaruv masalalari, menejerlar va kompaniyaning boshqa rahbarlariga muhim masala hisoblangan mehnatni muhofaza qilish madaniyati sohasidagi baxtsiz hodisalar sonini kamaytirishga yordam beradigan madaniyatni shakllantirishga amaliy yordam berishidir.

Mehnatni muhofaza qilish madaniyati (MMQM) tushunchasi bugungi kunda aniq shakllantirilmagan va menejerlar ishchilarning e'tiborini qaratish orqali korxonada MMQMni rivojlantirishga harakat qiladilar.

MMQ madaniyatiga kompleks yondashuvga o'tgan asrning saksoninchi yillarda o'tkazilgan ish o'rning mikroiklim parametrlarini tadqiqot qilishdan kelib chiqadi, ya'ni ushbu tushunchalar ishchilar o'zlarining ish muhitini qanday qabul qilishlari, xususan, rahbariyat mehnat xavfsizligiga qanday g'amxo'rlik qiladi, xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday harakatlar qiladi va ish joyidagi xavflarni nazorat qilishda qanday ishtirok etishi o'rganildi. Tadqiqot shundan iboratki, xodimlar idrok etish tizimini yaratadilar va foydalanadilar, bu ularga tashkilot ulardan nimani kutayotganini aniqlashga yordam beradi va keyin shunga muvofiq harakat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, idrok individual jarayon sifatida qabul qilinadi. Ammo ish joyidagi xavfsizlik muhitini shakllantiradigan tushunchalar ishchilarning sun'iy ravishda yaratilgan MMQ madaniyati tizimiga umumiy munosabati tasvirini yaratishga yordam beradi. Shu sababli, ish o'rning mikroiklim parametrlarining MMQ madaniyatini to'liq qamrab olmasa ham, ma'lumot manbai sifatida qaralishi mumkin.



Ushbu holatlar ishlab chiqarishdagi mehnatni muhofaza qilish madaniyatining dinamikasini va madaniyatini yaratish, saqlash va o'zgartirish bilan bog'liq jarayonlar haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Bu jarayonlardan biri yetakchi bo'lib, kasaba uyushmalari xodimlari tomonidan namoyish etiladi. Kompaniyaning rasmiy va norasmiy rahbarlarini qadriyatlarga sodiqligi tashkiliy madaniy yondashuvini ko'rsatish va yangi umumiy qadriyatlarni yaratishda shaxsning rollarini muhimligini ko'rsatib, tashkilotlarda yetakchiligi bo'yicha so'nggi tadqiqotlar muhim hissa qo'shdi.[1]

Ba'zi tashkilotlar mehnatni muhofaza qilish jarayonini boshqaruvida xavfsizlik qoidalari va dasturlariga rioya etilishini yaratish va nazorat qilish borasida faqat rasman rioya qilish bilan cheklangan

Boshqa kompaniyada muxandislar menejmentga kengroq yondashuvni namoyish etib, bunda rasmiy xolatni (kerakli texnik ishlar uchun vaqt ajratish to'g'risida) qaror qabul qilib,

shaxsiy munosabatni birlashdi (bu yerda xavfsizlik va mehnat unumdorligini muhokama qilish, qiyin moliyaviy ahvolni yaxshilash borasida) ishchilar bilan yig'ilish o'tkazildi

**“MEHNATNI MUHOFAZA QILISH MADANIYATI ”  
tushunchasi**

Har bir inson mehnat faoliyati, uni tashkil etish, kerakli informatsion texnologiyalardan foydalanish, xavfsiz ish olib borish, ish o'rnini tashkil etish to'g'risida turlicha tasavvurga ega. Xatto insonlarda mehnatga munosabati ham farqlanadi.



Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, ayrim kichik korxonalar MMQ borasida boshqaruv rolini butunlay e'tiborsiz qoldiradilar. Mingdan ortiq shunday korxonalarda mehnatni muxofaza qilish menejerlar ishtirokida olib borilgan tadqiqotlarda xavfsizlik madaniyatini saqlashga sezilarli darajada ishtirok etishini ko'rsatib berdi. Ba'zi ish joylarida dominant intilish "iyerarxik ishtirok" deb ataladi va bu intilish asosan nazoratga yo'naltirilgan; boshqa tashkilotlarda esa ushbu "ishtirok etish" ko'proq tarqalgan, chunki menejerlar ishchilarga baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlarida ishtirok etishga ruxsat beradilar va rag'batlantiradilar va xavfsizlik masalalarini ishchilarga to'liq topshiradilar.

Mehnatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish - bu xodimlarning korxonada xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish masalalariga munosabatini belgilaydigan bilim, ko'nikma va qadriyatlar to'plamini, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhimligini, shuningdek, har bir xodimning o'z xavfsizligi va boshqalarning xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarligini tushunishni o'z ichiga oladi.

Yangi zamonaviy texnologiyalar va murakkab ishlab chiqarish tizimlari davrida, tashkilot ichidagi munosabatlarga jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, iste'molchilar talablari va jamoa shartnomalari ta'sir ko'rsatayotgan bir paytda, turli sohalaridagi korxonalar sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va saqlashda yangi muammolarga duch kelmoqdalar. Milliy iqtisodiyotning postindustrial davrga ("bilimlar iqtisodiyoti" deb ataladigan) o'tish shartlaridan biri sifat jihatidan yangi mehnat sharoitlari va shunga mos ravishda mehnat madaniyatiga bo'lgan talablarning oshishi bilan bog'liq.



Xavfsizlik madaniyatining mazmuni korxonada faoliyatiga, ichki tuzilma va davom etayotgan jarayonlarning xususiyatlariga mos kelishi kerak. Faoliyatning ushbu qismidagi asosiy yo'nalishlari:

- mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish, ularning mohiyati va amaliy ma'nosini barcha darajadagi boshqaruv va ishchilarga etkazish;

- xavflarni amaliy nuqtai nazardan baholash - texnologik jarayonlardagi xavf omillarini, odamlarga va atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni, xavflarning kuchayishi uchun sharoitlarning ehtimolini o'rganish;

- ichki munosabatlar va aloqalar tizimi - barcha darajadagi axborotlashtirish va tajriba almashish tartibi, xavfsizlik va xavflarning oldini olish masalalarida rahbarlar va bo'ysunuvchilarning o'zaro munosabatlari tartibi;

- rejalashtirish, tashkil etish va hujjatlashtirish - sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish madaniyati, hujjat aylanishini tashkil etish, hodisalarni qayd etish sohasidagi chora-tadbirlar tizimi;

- monitoring va natijalarni baholash tizimi - xavf omillari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, chora-tadbirlar samaradorligini baholash, baxtsiz hodisalarni tekshirish natijalari.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida davlatimiz oldida jadal va barqaror iqtisodiy o'sish asosida fuqarolar farovonligini va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish vazifasi turibdi. Ushbu muammoni hal qilish mehnatni muhofaza qilish va tegishli mehnat madaniyatini ta'minlashni, ya'ni kasbiy darajasi zamonaviy malaka talablariga javob beradigan, belgilangan ish vaqtida ma'lum miqdor va sifatni sog'lig'iga zarar yetkazmasdan bajarishga qodir bo'lgan jismoniy, aqliy va hissiy salohiyatli kadrlarni jalb qilishni talab qiladi.

**Mehnatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish**

**Mehnatni muhofaza qilish madaniyatining asosiy prinsiplari**

- Ishchidan bajara olmaydigan ishni qilishni talab qilish mantiqqa to'g'ri kelmasligi
- Agar ishchi mehnatni muhofaza qilish talablarini bajarmasa, kamsitmay, xotirjam, dadil bunday qilish mumkinmasligini tushuntirishi
- Tekshirish chog'ida atayin yoki bilmay yoki sharoitdan kelib chiqib qilingan xatoliklarning farqini tushunish zarur
- O'z ish faoliyatida hissiyotlar berilib emas, balki obyektiv fikrlash bilan boshqarish kerak

Inson kapitalini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar qatorida yondashuvlar, jumladan, ish joyida xavfsizlik madaniyatini oshirish, qulay mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari hisobga oladigan "xavfsizlik muhiti"ni yaratish zarur.


Mehnatni muhofaza qilish madaniyati korxonada boshqaruv tizimining muhim elementi hisoblanadi, chunki u baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari xavfini kamaytirishga, shuningdek, mehnat unumdorligi va korxonada samaradorligini oshirishga qaratilgan choratadbirlar yordam beradi. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish xodimlarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib, xodimlarning ish joyidagi xavfsizlik va sog'liqni saqlashga munosabatini belgilaydigan bilim, ko'nikma, ko'nikma va qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnatni muhofaza qilish madaniyati masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda va faol hal qilinmoqda, bu sof ishlab chiqarish faoliyati bilan bir qatorda korxonada boshqaruvining eng muhim elementlaridan biriga aylanib bormoqda.[3]

MMQ madaniyati yangi tushuncha sifatida Mehnatni muhofaza qilishning madaniy jihatlari o'z ichiga olgan bir qancha nazariyalarni o'z ichiga olgan tushuncha sifatida ko'rish mumkin, masalan, MMQga munosabat, MMQ tizimidagi xatti-harakatlar va ish joyidagi xavfsizlik iqlimi va h.k.

Xavfsizlik madaniyatini shakllantirish ishchilarni ish joyidagi xavfsizlik qoidalarini va ko'nikmalari, shuningdek, ushbularga rioya qilish uchun har bir xodimning shaxsiy javobgarligi haqida o'qitish va xabardor qilishdan boshlanadi. Ta'lim ishchilarning kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarida, kirish mashg'ulotlaridan boshlab muntazam ravishda malaka oshirish bilan yakunlanishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish uchun shaxsiy himoya vositalarining mavjudligi va sifatini ta'minlash, shuningdek, ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish ham zarur. Shaxsiy himoya vositalari xavfsizlik talablariga javob berishi va korxonaning barcha xodimlari uchun mavjud bo'lishi kerak.



MMQ madaniyatining muhim elementi ishchilarning ish joyida xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etishidir. Buning uchun ishchilarning mehnatni muhofaza qilish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish jarayonida faol jalb etishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, xavfsizlik sohasida ishchilarning tashabbuskorligini rag'batlantirish zarur.

Shuningdek, ishchilarning ish joyidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va ularni minimallashtirish choralari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash kerak. Xodimlar uchun ma'lumotlar muntazam va dolzarb bo'lishi va ular barcha xodimlar uchun ochiq va tushunarli bo'lishi kerak.[2]



Korxonada boshqaruvining elementi sifatida mehnatni muhofaza qilish madaniyatini joriy etish va oldini olish barcha darajadagi xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlariga bo‘lgan huquqni, aniq belgilangan tizim orqali ish beruvchilar va xodimlarning xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini ta‘minlashda faol ishtirokini ta‘minlashni anglatadi. Huquqlar, burchlar va majburiyatlar borasida profilaktika tamoyiliga ustuvorlik beriladi. Profilaktika ga yo‘naltirilgan xavfsizlik madaniyatini yaratish, targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash xavf va xatar tushunchalarini, ularni oldini olish yoki nazorat qilishni bilish va tushunishni talab qiladi.

Shunday qilib, jamiyat va o‘z-o‘zini samaradorligi hissi rivojlanadi, ish beruvchilar va xodimlarni yanada ijodiy faoliyatini oshiradi.

Agar mehnatni muhofaza qilish madaniyatini joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar haqida gapiradigan bo‘lsak, ular quyidagilardan iborat:

1. Korxonada MMQga tegishli chizmalar va maketlar, trenajyorlar, yorug‘lik displeylari, fotostendlar, plakatlar va boshqalar bilan jihozlangan tematik xonalari (sinf xonalari) bilan o‘quv markazini tashkil etish.

2. Ishchi va mutaxassislarni yangi texnologiyani ishga tushirishdan uch oy oldin o‘qitish.

3. O‘quv markazida nafaqat o‘z korxonangizda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha erishilgan yutuqlar bilan, balki boshqa korxonalarda ham mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ilg‘or tajriba va yangiliklar bilan tanishish.

4. Axborot xizmatlarini faollashtirish.

5. Ishlab chiqarish jarohatlarini o‘rganish uchun statistik, topografik va monografik usullar asosida tuzilgan tegishli rejalar bo‘yicha ish boshlashdan oldin qisqa muddatli brifinglar o‘tkazish.

6. O‘quv markazlarida mehnatni muhofaza qilish qonunchiligini buzuvchilarga qarshi kurashishga qaratilgan ko‘rgazma materiallar, satirik varaqalar chop etish.

7. Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha ish joylarini attestatsiyadan o‘tkazish.

8. Ishda jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy treninglar o‘tkazish o‘tkazish.

9. Maxsus kiyim- bosh, shaxsiy himoya vositalari, maxsus adabiyotlar, jurnallar, plakatlar va boshqa mehnatni muhofaza qilish vositalari bilan muntazam ta‘minlash.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Хайруллина Л.И., Гасилов В.С. Культура охраны труда как элемент управления предприятием // Фундаментальные исследования. – 2012. – № 11-3. – С. 665-669;

2. Культура безопасности основные понятия и определения. Пособие / А.Б. Кусаинов – Кокшетау: Высший колледж гражданской защиты, 2018. – 80 с.

3. М.А. Rasuleva, А.Х. Rasulev. Hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2020 y.